

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Almuradov Oybek Abdullayevich. *O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA ISLOM BANK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 / ISSUE 4 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423*
2. Dilmurod Yusupaliyevich Khujamkulov, Ruhiddin Khusniddin Ogli Zayniddinov, Dilmurod Rakhmatullayevich Ergashev; Mamajon Akhmatjonovich Mamatov, Khusniddin Fakhreddinovich Uktamov *REVISTA GEINTAC.* (2021) ISSN: 2237-0722 Vol. 11 No. 2.
3. Dodiyev Fozil O'tkurovich va Boboyorov Asilbek Yo'ldoshovich. "O'zbekistonda islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari". *Moliya va Bank ishi Jurnali* 1 (2022) 29-32 betlar.
4. E.X.Maxkamov, *Tijorat banklarida faoliyat ko'rsatuvchi islam darchalarining dolzarbligi, "XXI asr: fan va ta'lif masalalari" ilmiy elektron jurnali.* №4, 2021 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2021: 6.23.

HUDUDLARDA ISLOM MOLIYASINI MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Xayitova Feruza Baxrom qizi
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlanirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktaranti*

Hozirgi kunda global iqtisodiy sharoitda islam moliyasi muslimonlar ko'p bo'lgan davlatlarda faol ishlab kelmoqda. Muslimon davlatlar hududlarida asosiy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o'tuvchi dinamik va ko'p qirrali global sanoatga aylangan. Islam moliyasi o'z mohiyatiga ko'ra shunchaki moliya tizimi bo'libgina qolmay balki ko'p asrlik islam ta'lilotlaridan kelib chiqqan axloqiy e'tiqod va ijtimoiy tamoyillarni o'zida namoyon etuvchi tushuncha hisoblanadi. Islam moliyasining asosini shariat qonunlariga asosolanib, axloqiy xulq-atvor,adolat va ijtimoiy mas'uliyatga rioya qilish kabi harakatlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda dunyodagi muslimon davlatlar ham iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini qidirib, iqtisodiy diversifikatsiya uchun islam iqtisodiyotiga katta et'tibor qaratishmoqda. Bir qancha jahon miqyosidagi yirik korporatsiyalar islamiy moliya mahsulotlarini ham taklif qilmoqda. Global "Nielsen" tadqiqotining natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 66 foizi halol mahsulotlarga ko'proq bo'lsada pul to'lashga tayyor. Shu sababdan ham global transmilliy korporatsiyalar Islam moliyasiga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda.

Oxirgi yillarda Islam moliyasi xalqaro miqyosda FinTech sohalarida rivojlanibgina qolmay, xalqaro moliyaviy xizmatlar sanoatida ham sekin astalik bilan ko'zga ko'rinxoqda. Islomiy moliya atamasi mahsulot va xizmat turlarining keng doirasini o'z ichiga oladi. Islam moliyasi va bankining umumiy amaliyotlari islam dinining o'rnatilishi bilan birga paydo bo'ldi. Biroq, institutsional islam moliyasi XX asrdan keyin tashkil etilgan. **Qardus** nashrining ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda islam moliya sektori yiliga 15 foizdan 25 foizgacha o'sib bormoqda, islam moliya institutlari esa dunyo bo'ylab umumiy qiymati **2,7**

trillion dollar ziyod aktivlarni boshqarmoqda²²⁴. Bundan tashqari hozirgi vaqtida islom moliyasi eng yaxshi yo'lga qo'yilgan 3ta davlat qatoriga keng ko'lamli ko'rsatkichlar bo'yicha global bozor hajmining 66%i Saudiya Arabiston, Eron va Malayziyaga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, islomiy moliya sektori umumiyligi ko'lami, xilma-xilligi va butun dunyo bo'ylab yangi bozorlarga kirish nuqtai nazaridan jadal rivojlanmoqda. 2021 yilda butun dunyo bo'ylab 1526 dan ortiq moliya institutlari faoliyat yuritgan bo'lib, hozirgi kunga kelib esa 46 dan ortiq mamlakat o'zlarining qonunchilik va me'yori-huquqiy asoslari doirasida Islom moliyasining o'sishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlamoqda.

Umuman olganda, islom moliyasi ko'p davrlardan buyon islom ta'limotlaridan kelib chiqqan axloqiy e'tiqod va ijtimoiy tamoyillarni o'zida namoyon etadi. Bu axloqiy qadriyatlar esa o'z navbatida, foiz (ribo), noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir) singari ekspluatsion amaliyotlardan foydalanmaslikka undaydi. Bunda shartnomalar o'zida moddiy aktivlar bilan ta'minlanishi va shaffoflik, tenglik va adolat tamoyillari bilan bog'lanishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari islom moliyasi mamlakat iqtisodiy muvozanatini ta'minlash va hududlar, jamoalar va shaxslar farovonligini oshirishga qaratilgan umumiyligi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqatida Prezidentimiz tomonidan islom moliyasiga ham alohida e'tibor qaratilib, bir qancha vazifalarni amalaga oshirish chora-tadbirlari belgilab berildi²²⁵. Unga ko'ra islom moliyasini rivojlantirish borasida quyidagi islomiy mahsulotlar, xizmatlar va banklar faoliyatining huquqiy asosini yaratish, islomiy mahsulotlar va xizmatlar hamda ularni ko'rsatuvchi tashkilotlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, islom moliyasi asosida jalb etilgan omonatlarni himoya qilish kabi ishlar qonunchilik kiritish belgilab berildi. Shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunda hududlarda istiqomat qilayotgan aholi o'rtasida o'tkazilgan surovnomalar natijasida, 38% biznes vakillari va 56% jismoniy shaxslarining o'z diniy qarashlari tufayli an'anaviy banklarga murojaat qilmasligi ma'lum bo'ldi. Mamlakatimiz aholisini 15-20 %i an'anaviy banklar tizimidan foydalanmaydi, bu esa o'z navbatida islomiy banklarga ehtiyoj toboro oshayotganini ko'rsatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham 2023 yil 3 fevralda Namanganda tashrifi chog'ida islomiy moliya tizimini qo'llab-quvvatlash haqida alohida ta'kidlab o'tgandilar.

Davlatimizdagi "Islom bank ishi va moliyasi" tashkilotining fikriga ko'ra, MDH mamlakatlarida islom moliyasi sanoatining o'sishi boshqa mamlakatlarga qaraganda sekinroq rivojlanmoqda, agar bu davlatlar hukumatlari ushbu sektorni rivojlantirish bo'yicha tashabbus ko'rsatsa, keyingi besh yil ichida islomiy moliya tizimi past bazadan sezilarli darajada osishi mumkin. Davlatimiz va qo'shni davlatlarimiz bo'lgan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston MDHda islom banki va moliyasini rivojlanishiga rahbarlik qilishda asosiy oyinchilar bo'la oladi.

²²⁴ <https://www.qardus.com/news/the-islamic-financial-services-industry-statistics>

²²⁵ <https://lex.uz/acts/-6591947>

Mamlakatimiz 30 million aholiga egaligi va ulardan 93% musulmonlarni tashkil etishi bilan Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri hisoblanadi²²⁶. Shu bilan birga o'zbekiston rasmiylari ham bank sektorlarini, tashqi savdoni rivojlantirish hamda chet hududlardagi aholining turmush tarzini yaxshilash maqsadida islom iqtisodi boshqaruvi va islom moliyaviy institutlarini qilish niyatini bildirishgan. Kichik va o'rta biznesbni rivojlantirish uchun O'zbekistonning Ipak yo'li banki Islom taraqqiyoti korporatsiyasidan 2006 yil 2million, 2010 yil 5 million, 2017 yilda esa 14 million dollar mablag' olgan. Bu esa o'z navbatida yurtdoshlarimiz o'rtasida islomioy moliyaga talab yuqoriligini ko'rsatadi. O'tgan yili 21-22 iyun kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Fintex, banklar, riteyl" forumida "Hayot" bank boshqaruvi raisi Zohid Alimov - "Islomiy moliyani jozibador jihatlari bu - tizimning shaffofligi va etikasi, kreditlash jarayonlarini taqiqlash hamda xatar va foydaning adolatli taqsimlanishi hisoblanadi. Ayni paytda O'zbekistonda islomiy moliya tizimining faoliyat yuritishiga imkon beruvchi qonunchilik ustida ish olib borilmoqda" deb ta'kidlab o'tgandi²²⁷. 2021 yilda Toshkentda Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining navbatdagi 46-yillik yi'g'ilishi bo'lib o'tgandi. Unda ITB (Islom taraqqiyot banki) guruhi va o'nta a'zo davlatlar o'rtasida umumiyligi 1,2 milliard AQSH dollariga teng bo'lган 30ta moliyaviy kelishuv imzolangan edi. Shundan 330 million dollarini O'zbekistonda islomiy moliyasini rivojlantirish harakatlariga sarflashi kelishilgan. Bundan tashqari ITB guruhining yi'g'ilishida mamlakatimiz uchun Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish jamg'armasi ham tuzilgan hamda ITBning to'lov tizimi yo'lga qoyilgan. Shuningdek, 2022 yil 20 aprel kuni mikromoliya tashkilotlari islom moliyasi tamoyillari asosida qarzlar berishi mumkinligi bo'yicha "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun imzolandi.

Yurtimiz hududlarida islom moliyasini rivojlanishi davlatimiz uchun ko'plab imkoniyatlarni ochadi. Masalan, mamlakatimizga xorijiy davlatlardan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshiradi, bank tarmoqlarida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish orqali bank tizimi aktivlarini diversifikatsiyalash imkonini yaratadi, aholi va tadbirkorlarning ixtiyoridagi bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyot rivojlanishi uchun ishtirokini ta'minlaydi, hududlarda ko'plab ish o'rinalarini yaratadi, mamlakatda kapital bozorini rivojlantiradi, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali esa moliya bozorlaridagi faolligini oshiradi, kambag'allikga qarshi kurashish davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shami hamda Islom moliya xizmatlari industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtiradi va yangilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-soni

²²⁶ <https://alhudacibe.com/pressrelease142.php>

²²⁷ <https://zamin.uz/uz/jamiyat/117956-islam-moliyasi-ozbekistonga-yiliga-10-mldr-dollargacha-mablag-jalb-qilishi-mumkin.html>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-292-son
3. B.A. Islamov, N.S. Ismailova, T.A. Hasanov, I.T.Danaboyev, A.S. Zikriyoev Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti darslik/ Toshkent-2018
4. E.A.Baydaulet. "Islom moliya asoslari", "O'zbekiston" Toshkent-2019
5. Ehson Shenojak – "Islom iqtisodiyoti" Toshkent qamar-2023
6. O. Akhmadjonov, A. Abdullaev, B. Umarjonov, M. Shamsiddinov "Islom moliyasi xususiyatlari" maqola 2022
7. www.qardus.com/
8. <https://alhudacibe.com/pressrelease142.php>
9. www.lex.uz
10. www.stat.uz
11. www.kun.uz

ИСЛОМ МОЛИЯСИННИГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ: РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВА МОЛИЯВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Астанакулов Олим Таштемирович
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Ислом иқтисодиёти ва молияси, зиёрат туризми кафедраси профессори, и.ф.д.

Ҳозирги кунда жаҳон молия секторида барқарор ривожланаётган ислом молиясининг замонавий технологиялари муҳим аҳамият касб этиб келмоқда. Айни пайтда ислом молия сектори йилига 15 - 25 фоизгача ўсиб бормоқда, бу соҳадаги институтлар бутун дунё бўйлаб 2,7 триллион АҚШ долларидан ортиқ активларини бошқармоқда²²⁸. Ислом иқтисодиёти қоидаларига асосланган ушбу молия модели мусулмон ва мусулмон бўлмаган инвесторлар ва тадбиркорларнинг эътиборини тортишни давом эттироқда. Бугунги глобал муаммолар ва технологик ютуқлар нуқтаи назаридан рақамли трансформация ва молиявий технологияларни жорий этиш ислом молия институтлари ва бозорларининг ривожланиши ва эволюциясига сезиларли таъсир кўрсатмоқда.

Ислом молия секторидаги рақамли трансформациянинг асосий жиҳатларидан бири рақамли технологияларни операцион жараёнлар ва хизматларга жорий этиш ҳисобланади. Янги технологик ечимлар тақдим этилаётган хизматлар самарадорлиги ва сифатини ошириши, транзакцияларни қайта ишлаш вақтини қисқартириши ва мижозлар эҳтиёжини қондиришни ошириши мумкин. Ислом молия институтларида онлайн-банкинг учун рақамли платформалар, ҳисобларни бошқариш ва тўловлар учун мобиль иловалар ҳамда рискларни таҳлил қилиш ва бошқаришнинг автоматлаштирилган тизимларидан фойдаланиш тобора кенг тарқалган.

²²⁸ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/17/islamic-finance/>